



ELEKTRON TA'LIMDA PEDAGOGIK YONDASHUVLAR ILG'OR TAJRIBALARNI O'RGANISH

Hamrayeva Gulnoz Rustamovna

Muhammad al-xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti,
“Axborot ta’lim texnologiyalari kafedrası” katta o‘qituvchisi.

Annotatsiya.

Ushbu maqolada elektron ta’limning zamonaviy pedagogik yondashuvlari, xususan, aralash ta’lim (blended learning), teskari sinf (flipped classroom) va konnektivizm nazariyasi ko‘rib chiqiladi. Ilg‘or xorijiy va mahalliy tajribalar tahlil qilinib, ularning O‘zbekiston ta’lim tizimida qo‘llanilish istiqbollari baholanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, ushbu yondashuvlar o‘quvchilarning motivatsiyasini oshirish, mustaqil fikrlashni rivojlantirish va ta’lim samaradorligini yuqori ko‘tarishda muhim rol o‘ynaydi.

Kalit so‘zlar: elektron ta’lim, pedagogik yondashuvlar, aralash ta’lim, teskari sinf, konnektivizm, ilg‘or tajribalar, masofaviy ta’lim.

ИЗУЧЕНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ И ПЕРЕДОВОГО ОПЫТА В ЭЛЕКТРОННОМ ОБУЧЕНИИ

Хамраева Гульноз Рустамовна

Старший преподаватель кафедры Информационно-образовательных технологий, Ташкентского университета информационных технологий имени Мухаммеда аль-Хорезмий.

Аннотация.

В данной статье рассматриваются современные педагогические подходы в электронном обучении, в частности смешанное обучение (blended learning), перевёрнутый класс (flipped classroom) и теория коннективизма. Анализируются передовой зарубежный и отечественный опыт, оцениваются перспективы их применения в системе образования Узбекистана. Результаты исследования показывают, что эти подходы играют важную роль в повышении мотивации





учащихся, развитии самостоятельного мышления и повышении эффективности обучения.

Ключевые слова: электронное обучение, педагогические подходы, смешанное обучение, перевёрнутый класс, коннективизм, передовой опыт, дистанционное обучение.

STUDYING PEDAGOGICAL APPROACHES AND ADVANCED PRACTICES IN E-LEARNING

Khamrayeva Gulnoz Rustamovna

Senior lecturer of the Department of Information and Educational Technologies.
Tashkent University of Information Technologies named after Muhammad al-Khorezmi

Abstract.

This article examines modern pedagogical approaches in e-learning, specifically blended learning, flipped classroom, and connectivism theory. Advanced international and local experiences are analyzed, and their prospects for implementation in the education system of Uzbekistan are evaluated. The research results indicate that these approaches play a significant role in enhancing students' motivation, developing independent thinking, and increasing the effectiveness of learning.

Keywords: e-learning, pedagogical approaches, blended learning, flipped classroom, connectivism, advanced practices, distance learning.

Kirish

So'nggi o'n yillikda jamiyatning barcha sohalarida raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi ta'lim tizimida ham tub islohotlarni amalga oshirish zaruratini yuzaga keltirdi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) ta'lim jarayoniga keng joriy etilishi natijasida an'anaviy o'qitish usullari bilan bir qatorda elektron ta'lim (e-learning) tushunchasi shakllandi va mustaqil ta'lim shakli sifatida rivojlanib bormoqda. Bugungi kunda elektron ta'lim ta'lim sifati va samaradorligini oshirish, o'quvchilarning mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirish va global bilimlar maydoniga integratsiyalashuvni ta'minlashda muhim omil hisoblanadi.

Elektron ta'lim – bu o'quv jarayonini kompyuter texnologiyalari, internet tarmoqlari, mobil qurilmalar va maxsus onlayn platformalar yordamida tashkil etish va





boshqarishga asoslangan ta'lim shaklidir. Ushbu ta'lim modeli o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi an'anaviy munosabatlarni tubdan o'zgartirib, o'quvchini ta'lim jarayonining markaziy subyektiga aylantiradi. Elektron ta'lim sharoitida o'qituvchi bilim manbai emas, balki ta'lim jarayonini tashkil etuvchi, muvofiqlashtiruvchi va maslahat beruvchi rolini bajaradi.

O'zbekiston Respublikasida ham elektron ta'limni rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Prezidentimizning ta'limni raqamlashtirish, masofaviy ta'limni rivojlantirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan farmon va qarorlari asosida oliy ta'lim muassasalarida Moodle, Google Classroom, Microsoft Teams kabi LMS platformalari keng qo'llanilmoqda. Bu jarayon elektron ta'limda pedagogik yondashuvlarning ilmiy asosda tanlanishi va amaliyotga joriy etilishini taqozo etadi.

Mazkur maqolada elektron ta'limning nazariy-pedagogik asoslari, ilg'or pedagogik yondashuvlar hamda xorijiy va milliy tajribalar tahlil qilinib, O'zbekiston ta'lim tizimida ularni qo'llash istiqbollari ilmiy jihatdan yoritiladi.

Elektron ta'lim tushunchasi va uning pedagogik mohiyati

Elektron ta'limning pedagogik mohiyati ta'lim jarayonini individuallashtirish, interaktivlikni oshirish va o'quvchilarning mustaqil faoliyatini rivojlantirishga qaratilganligi bilan izohlanadi. An'anaviy ta'limda o'qituvchi tomonidan belgilangan yagona o'quv sur'ati ustuvor bo'lsa, elektron ta'limda har bir o'quvchining qobiliyati, qiziqishi va bilim darajasiga mos individual o'rganish trayektoriyasi shakllantiriladi.

Elektron ta'limning asosiy xususiyatlariga quyidagilar kiradi:

- **Masofaviylik** – ta'lim jarayonining geografik va vaqt chegaralarisiz amalga oshirilishi;
- **Moslashuvchanlik** – o'quvchilarning individual ehtiyojlariga moslashish imkoniyati;
- **Interaktivlik** – o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida doimiy muloqotni ta'minlash;
- **Multimedia resurslaridan foydalanish** – video, audio, animatsiya va simulyatsiyalar orqali bilimlarni mustahkamlash;
- **Avtomatlashtirilgan baholash** – testlar va elektron topshiriqlar yordamida bilimlarni tezkor va xolis baholash.





Mazkur xususiyatlar elektron ta'limni samarali tashkil etishda pedagogik yondashuvlarning ilmiy asoslangan holda tanlanishini talab etadi.

Zamonaviy ta'lim tizimi jamiyat taraqqiyoti, fan-texnika yutuqlari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'sirida tubdan yangilanib bormoqda. Ta'lim jarayonida nafaqat bilim berish, balki shaxsni har tomonlama rivojlantirish, mustaqil fikrlash, muammoni hal qilish va ijodiy yondashuvni shakllantirish ustuvor vazifaga aylandi. Bu esa pedagogik yondashuvlarni qayta ko'rib chiqish va ilg'or tajribalarni amaliyotga joriy etishni taqozo etadi.

Pedagogik yondashuvlar ta'lim jarayonining maqsadi, mazmuni, metodlari va natijalarini belgilovchi muhim ilmiy asos hisoblanadi. An'anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda zamonaviy pedagogik konsepsiyalar – konstruktivizm, konnektivizm, aralash ta'lim, teskari sinf, muammoga asoslangan ta'lim va gamifikatsiya kabi ilg'or tajribalar ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Shunday qilib, elektron ta'limda pedagogik yondashuvlarning o'rnini alohida ahamiyatga ega. An'anaviy pedagogika (behaviorizm, kognitivizm) bilan birga, zamonaviy yondashuvlar – konstruktivizm, konnektivizm va aralash ta'lim modellari – o'quv jarayonini samaraliroq qilmoqda. Ushbu maqolada ilg'or pedagogik yondashuvlar va ularning amaliy tajribalari o'rganiladi.

Elektron ta'limning pedagogik asoslari bir nechta nazariyalarga tayangan holda shakllangan:

Behaviorizm yondashuvi - o'quvchi stimullar orqali javob berishga o'rgatiladi. Elektron ta'limda bu testlar, avtomatlashtirilgan baholash va takroriy mashqlar orqali amalga oshiriladi.

Kognitivizm - bilimni qayta ishlash va saqlash jarayonlariga e'tibor beradi. Interaktiv modullar va multimedia resurslar bu yondashuvni qo'llab-quvvatlaydi.

Konstruktivizm - O'quvchi o'z bilimini faol ravishda quradi. Forumlar, loyihalar va guruh muhokamalari orqali amalga oshiriladi.

Konnektivizm (Siemens, 2005): Raqamli davr nazariyasi bo'lib, bilim tarmoqlar orqali shakllanishini ta'kidlaydi. Ijtimoiy tarmoqlar, wiki-sahifalar va ochiq resurslar (MOOC) bu yondashuvning asosiy vositalaridir.

Ilg'or pedagogik yondashuvlar va tajribalar





1. Aralash ta'lim (Blended Learning) – an'anaviy sinf darslari bilan onlayn resurslarni birlashtirishdir. Xorijiy tajribada (Harvard University, Barnard College) bu model o'quvchilarning faolligini oshirishi va baholashni soddalashtirishi isbotlangan. O'zbekistonda Moodle va boshqa platformalar orqali aralash ta'lim joriy etilmoqda, masalan, oliy o'quv yurtlarida masofaviy kurslar yaratishda.

Afzalliklari: moslashuvchanlik, individual yondashuv. Kamchiliklari: texnik infratuzilma va o'qituvchilar malakasining yetarli emasligi.

2. Teskari sinf (Flipped Classroom) - Teskari sinf modelida nazariy material uyda (video, onlayn lektsiyalar orqali) o'rganiladi, sinfda esa amaliy mashqlar va muhokamalar o'tkaziladi. Bu model konnektivizmga asoslanib, o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi. Xorijiy tadqiqotlar (University of British Columbia) shuni ko'rsatadiki, teskari sinf motivatsiyani oshiradi va bilimni chuqurroq o'zlashtirishga yordam beradi.

Pandemiya davrida O'zbekiston maktab va oliy ta'lim muassasalarida teskari sinf metodikasi elementlari keng qo'llanildi. Ushbu yondashuvda an'anaviy darsdagi nazariy ma'lumotlar oldindan onlayn videodarslar, prezentatsiyalar va elektron resurslar orqali o'quvchilarga yetkazildi, dars vaqtida esa faol muhokamalar, amaliy mashg'ulotlar va guruh loyihalari orqali bilimlarni mustahkamlashga e'tibor qaratildi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bu metodika o'quvchilarning faolligini oshirish, mustaqil fikrlash va tanqidiy tahlil ko'nikmalarini rivojlantirishda samarali bo'lgan.

O'zbekiston tajribasida, pandemiya davrida teskari sinf elementlari qo'llanilgan bo'lib, u o'quvchilarning faolligini oshirga sabab bo'ldi.

Muammoga asoslangan ta'lim (PBL): Real muammolarni hal qilish orqali o'rganish.

Gamifikatsiya: O'yin elementlari (ballar, badge'lar) orqali motivatsiya oshirish.

Adaptiv ta'lim: AI yordamida individual trayektoriya yaratish

Pandemiya davrida global miqyosda elektron ta'lim tez sur'atlar bilan rivojlana boshladi. Xorijiy mamlakatlarda onlayn platformalar (Coursera, edX, Khan Academy va boshqalar) kengaytirilib, masofaviy va aralash ta'lim modellari asosida darslar tashkil etildi. Ta'lim jarayonida teskari sinf (flipped classroom), interaktiv modul va virtual laboratoriyalar keng qo'llanildi. Bu yondashuvlar talabalar motivatsiyasini





oshirish, mustaqil o'rganishni rag'batlantirish va ta'lim samaradorligini sezilarli darajada yaxshilashga xizmat qildi.

Xorijiy tajribalar (Coursera, EdX) shuni ko'rsatadiki, ushbu yondashuvlar ta'lim samaradorligini 20-30% ga oshirishi mumkin.

O'zbekistonda ilg'or tajribalarni qo'llash istiqbollari shuni kursatadiki, O'zbekistonda elektron ta'limni rivojlantirish bo'yicha davlat siyosati (Prezident farmonlari) mavjud. Moodle platformasining pedagogik tamoyillari (Anarbayeva, 2022) va innovatsion texnologiyalar (Dehqanova, 2025) bo'yicha tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, aralash va teskari modellar joriy etilsa, ta'lim sifati oshadi.

Mavjud muammolar shuni ko'rsatadiki, internetga kirishning cheklanganligi, o'qituvchilarning raqamli savodxonligi rivojlantirish zarurligini talab etadi. Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun quydagi yechimlarni tavsiya etish, malaka oshirish kurslari va infratuzilmani rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, elektron ta'limda pedagogik yondashuvlarning ilg'or tajribalari – aralash ta'lim, teskari sinf va konnektivizm – zamonaviy ta'limning kelajagini belgilaydi. O'zbekiston ta'lim tizimida ushbu yondashuvlarni keng joriy etish orqali o'quvchilarning raqobatbardoshligini oshirish mumkin. Kelgusida AI va VR texnologiyalarini integratsiya qilish tavsiya etiladi.

Pedagogik yondashuvlarning ilg'or tajribalari zamonaviy ta'lim tizimining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Aralash ta'lim, teskari sinf, muammoga asoslangan ta'lim, gamifikatsiya va adaptiv ta'lim kabi yondashuvlar o'quvchilarning bilim olish jarayonini faollashtiradi, mustaqil fikrlash va ijodiy kompetensiyalarni rivojlantiradi. Ushbu yondashuvlarni O'zbekiston ta'lim tizimida keng joriy etish orqali ta'lim sifatini oshirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga erishish mumkin.

Xulosa o'rnida shuni takidlash kerakki, elektron ta'limning pedagogik qarashlari talabalarning individual ehtiyojlariga moslashish, interaktiv va hamkorlikka asoslangan o'qitish imkoniyatini yaratadi. Ilg'or tajribalarni o'rganish pedagoglarga ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish, samaradorligini oshirish va zamonaviy pedagogik innovatsiyalarni qo'llashda muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risidagi Farmoni. – Toshkent, 2020.





2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi. – Toshkent, 2019.
3. Anarbayeva F.U. Elektron ta’limda Moodle platformasining pedagogik tamoyillari // ResearchGate, 2022.
4. Siemens G. Connectivism: A Learning Theory for the Digital Age // International Journal of Instructional Technology and Distance Learning, 2005.
5. Bergmann J., Sams A. Flip Your Classroom: Reach Every Student in Every Class Every Day. ISTE, 2012.
6. Dehqanova N. Bo‘lajak pedagoglarni tayyorlashda innovatsion o‘qitish texnologiyalari // Scientific Approach to the Modern Education System, 2025.
7. Teach Remotely: Pedagogical Best Practices in Online Learning // Harvard University, 2023.
8. Means B., Toyama Y., Murphy R. Evaluation of Evidence-Based Practices in Online Learning. – U.S. Department of Education, 2010.
9. Graham C. R. Blended Learning Systems: Definition, Current Trends, and Future Directions // Handbook of Blended Learning. – San Francisco: Pfeiffer, 2006.
10. OECD. Digital Education Outlook 2021: Pushing the Frontiers with AI, Blockchain and Robots. – Paris, 2021.

